





“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Tog‘-kon sanoati va geologiya vaziri –
Davlat zaxiralari komissiyasi raisi

 B.F. Islamov

2023-yil “ 8 ” 

**O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi
Foydali qazilmalar zaxiralari bo‘yicha davlat komissiyasi majlisining**

1295 -son bayonnomasi

2023-yil 28-aprel

Toshkent sh.

Raislik qiluvchi: Islamov B.F. – O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vaziri – Davlat zaxiralari komissiyasi raisi.

Ishtirokchilar: Davlat zaxiralari komissiyasi (keyingi o‘rinlarda DZK deb ataladi) a‘zolari, DZK ishchi organi xodimlari, ijrochilar, manfaatdor shaxslar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining (keyingi o‘rinlarda Kon-geologiya vazirligi deb ataladi) qattiq foydali qazilmalarda xalqaro talablarga moslashtirilgan geologiya-qidiruv ishlarini olib borishga oid uslubiy hujjatlarni ko‘rib chiqish to‘g‘risida

(Islamov, Kadirxodjayev, Ibragimov, Xolikov, Mingboyev, Ismailov, Rudnev, Avladov, Oxunov, Gleyzer, Panchenkova, Asabayev, Islamov)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-dekabrdagi 02-06/1-657-sonli bayonnomasining 2-bandiga muvofiq, "NKMK" AJ tomonidan Foydali qazilmalar zaxiralari bo‘yicha davlat komissiyasi (DZK) va CRIRSCO qo‘mitasi (JORC kodeksi) talablarini uyg‘unlashtirish va garmonizatsiya qilish bo‘yicha taklif ishlab chiqildi.

DZK talablari batafsil uslubiy tavsiyalarga asoslanadi, uning aniq bajarilishi asosiy natijasini kafolatlaydi – zaxiralarni balansga qo‘yish.

So‘nggi 30-yil ichida talablarni yangilanmaganligi va muhumligini yo‘qotganligi sababli uslubiy tavsiyalarning zaif tomonini ko‘rsatadi. Uslubiy tavsiyalarda yangi paydo bo‘lgan usullar hisobga olinmaydi va shunga mos ravishda yangi usullar rasmiy ravishda qo‘llanilmaydi yoki zaxiralarni hisoblashda va rejalashtirishda cheklovlar bilan qo‘llanilishi mumkin. Shu bilan birga, ba‘zi tavsiyalar eskirgan bo‘lib va zamonaviy texnologiyalarga javob bermaydi.

Garmonizatsiyaning asosiy vazifasi – JORC kodeksi va DZKning talablariga muvofiq baholashni amalga oshirishga imkon beradigan yagona ishonchli asosni tayyorlashdir.

Yagona asos – har ikkala talablarga javob beradigan batafsil va sifat jihatidan dastlabki ma‘lumotlarni ta‘minlash, dastlabki ma‘lumotlarni to‘plashda ishlarning takrorlanishini bartaraf etish, keyingi texnik tadqiqotlar uchun yagona resurs modeli

shaklida yagona geologik asosni ta'minlash, konchilikning yagona strategiyasini asoslash, zaxiralarni baholashda yagona iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash.

Har qanday texnik tadqiqotlarni o'tkazish uchun yagona asosning mavjudligi konni balansga kiritish uchun ham, moliyalashtirish uchun ham zarur bo'lgan natijalar va baholashni imkonini beradi.

Bundan tashqari, yagona geologik asosda amalga oshirilgan texnik tadqiqotlar, shuningdek, ishlarni yuqori sifatli bajarish bilan ikkala kodeksning talablariga ham mos kelishi mumkin.

Ushbu ishlarni amalga oshirish maqsadida, 2022-yilda tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ning (I-bosqich)ga asosan, soha xodimlari tomonidan 13 ta normativ-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, DZK tomonidan 2022-yil 26-sentyabrdagi 1185-sonli bayonnoma bilan tasdiqlangan.

"Yo'l xaritasi"ning (II-bosqich)ga asosan, 2022-2023 yillarda soha xodimlari tomonidan 14 ta normativ-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilgan normativ-me'yoriy hujjatlarni xalqaro talablarga moslashtirish Kon-geologiya vazirligi "MRI" DMning amaldagi loyihasi doirasida: Kon-geologiya vazirligi, "Davlat axborot markazi" DM, "Regionalgeologiya" DUK, "Geologiya fanlari universiteti" DM, "O'zbek geologiya qidiruv" AJ, "GIDROINGEO instituti" DM – modellash, konchilik, burg'ilash, namuna olish, laboratoriya va tahliliy ishlar, iqtisodiyot va gidrogeologiya bo'yicha tegishli mutaxassislarini jalb qilgan holda amalga oshirildi va DZK tomonidan ko'rib chiqish uchun taqdim etilmoqda:

1. "Kumush ma'danli konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma". Mualliflar: Gleyzer L.M., Oxunov A.X., Raxmonova N.B.

Ushbu "Yo'riqnoma" Davlat geologiya qo'mitasi tomonidan 2003-yil 9-iyulda tasdiqlangan "Kumushli ma'dan konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" o'rniga ishlab chiqilgan. Kumush konlarini baholash va qidirish hamda zaxiralarni hisoblash bo'yicha geologiya-qidiruv ishlarining mahalliy va xorijiy amaliyotini hisobga olgan holda, shuningdek, qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining yangi tasnifiga (DZK) muvofiq quyidagi o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi:

- Respublika kumush konlarining o'rnatilgan morfologik turlari aniqlangan;
- konni baholash va qidirish usullariga aniqliklar kiritildi;
- geologik zaxiralarni hisoblash bo'yicha talablar aniqlangan;
- konlarni qidirish va o'zlashtirish ma'lumotlarini taqqoslash natijalari bo'yicha nomuvofiqliklar aniqlanganda zaxiralarni qayta hisoblash asoslari keltirilgan;
- zaxiralarni hisoblashda qabul qilingan usullar aniqlangan;
- A₁ va A₂ toifalardagi kumush mavjud bo'lgan ma'danlarning ekspluatatsion zaxiralarini hisoblash "Qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining tasnifi"ga muvofiq amalga oshirilishi ko'rsatilgan;

"Kumush konlarini qidirish darajasini baholash" va "Zaxiralarni qayta hisoblash va qayta tasdiqlash" kabi yangi bo'limlar joriy etildi.

2. "Volfram ma'danli konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma". Mualliflar: Gleyzer L.M., Oxunov A.X., Raxmonova N.B.

Ushbu yo'riqnoma Davlat geologiya qo'mitasi tomonidan 2003-yil 12-avgustda tasdiqlangan "Volframli ma'dan konlariga zaxiralar tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" o'rniga ishlab chiqilgan. Volfram konlarini baholash va qidirish hamda zaxiralarni

hisoblash bo'yicha geologiya-qidiruv ishlarining mahalliy va xorijiy amaliyotini hisobga olgan holda, shuningdek, qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining yangi tasnifiga (DZK) muvofiq quyidagi o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi:

Respublika Volfram konlarining o'rnatilgan morfologik turlari aniqlangan;
konni baholash va qidirish usullariga aniqliklar kiritildi;
geologik zaxiralarni hisoblash bo'yicha talablar aniqlangan;
konlarni qidirish va o'zlashtirish ma'lumotlarini taqqoslash natijalari bo'yicha nomuvofiqliklar aniqlanganda zaxiralarni qayta hisoblash asoslari keltirilgan;
zaxiralarni hisoblashda qabul qilingan usullar aniqlangan;

A₁ va A₂ toifalardagi Volfram mavjud bo'lgan ma'danlarning ekspluatatsion zaxiralarini hisoblash "Qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining tasnifi"ga muvofiq amalga oshirilishi ko'rsatilgan;

"Volfram konlarini qidirish darajasini baholash" va "Zaxiralarni qayta hisoblash va qayta tasdiqlash" kabi yangi bo'limlar joriy etildi.

3. "Molibden ma'danli konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma". Mualliflar: Gleyzer L.M., Oxunov A.X., Raxmonova N.B.

Ushbu yo'riqnoma Davlat geologiya qo'mitasining 2007-yil 28-iyulda 108-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Molibden ma'danli konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" o'rniga ishlab chiqilgan. Molibden konlarini baholash va qidirish hamda zaxiralarni hisoblash bo'yicha geologiya-qidiruv ishlarining mahalliy va xorijiy amaliyotini hisobga olgan holda, shuningdek, qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining yangi tasnifiga (DZK) muvofiq quyidagi o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi:

Respublika va xorijiy davlatlarda molibden tarkibli konlarining o'rnatilgan morfologik turlari aniqlangan;

konni baholash va qidirish usullariga aniqliklar kiritildi;
geologik zaxiralarni hisoblash bo'yicha talablar aniqlangan;
konlarni qidirish va o'zlashtirish ma'lumotlarini taqqoslash natijalari bo'yicha nomuvofiqliklar aniqlanganda zaxiralarni qayta hisoblash asoslari keltirilgan;
zaxiralarni hisoblashda qabul qilingan usullar aniqlangan;

A₁ va A₂ toifalardagi molibden mavjud bo'lgan ma'danlarning ekspluatatsion zaxiralarini hisoblash "Qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining tasnifi"ga muvofiq amalga oshirilishi ko'rsatilgan;

"Molibden konlarini qidirish darajasini baholash" va "Zaxiralarni qayta hisoblash va qayta tasdiqlash" kabi yangi bo'limlar joriy etildi.

4. "Kaolin konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma". Mualliflar: Panchenkova L.A., Asabayev D.X., Ergeshev A.M., Ishniyazov Sh. Ya., Raxmonova N.B.

Ushbu "Yo'riqnoma" kaolin konlarini o'rganish va zaxiralarini hisoblash bo'yicha asosiy talablarni, ularning sanoatda o'zlashtirishga tayyorlik darajasini belgilaydi.

"Yo'riqnoma" Davlat geologiya qo'mitasi tomonidan 2002-yil 1-iyulda tasdiqlangan "Kaolin konlarga oid zaxiralar tasnifini qo'llashga doir yo'riqnoma" o'rniga ishlab chiqilgan. Kaolin konlarini baholash va qidirish hamda zaxiralarni hisoblash bo'yicha geologiya-qidiruv ishlarining mahalliy va xorijiy amaliyotini hisobga olgan holda, shuningdek, qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining yangi tasnifiga (DZK) muvofiq tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi.

5. "Gips va angidrit konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma". Mualliflar: Panchenkova L.A., Asabayev D.X., Ergeshev A.M., Ishniyazov Sh. Ya., Raxmonova N.B.

Ushbu "Yo'riqnoma" Gips va angidrit konlarini o'rganish va zaxiralarini hisoblash bo'yicha asosiy talablarni, ularning sanoatda o'zlashtirishga tayyorlik darajasini belgilaydi.

"Yo'riqnoma" Davlat geologiya qo'mitasi tomonidan 2002-yil 12-sentyabrda tasdiqlangan "Gips va angidrit konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" o'rniga ishlab chiqilgan. Gips va angidrit konlarini baholash va qidirish hamda zaxiralarni hisoblash bo'yicha geologiya-qidiruv ishlarining mahalliy va xorijiy amaliyotini hisobga olgan holda, shuningdek, qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining yangi tasnifiga (DZK) muvofiq tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi.

6. "Qurilishda ishlatiladigan va qoplama tosh konlari uchun zaxiralar tasnifini qo'llashga oid yo'riqnoma". Mualliflar: Panchenkova L.A., Asabayev D.X., Ergeshev A.M., Ishniyazov Sh. Ya., Raxmonova N.B.

Ushbu "Yo'riqnoma" qurilishda ishlatiladigan va qoplama tosh konlarini o'rganish va zaxiralarini hisoblash bo'yicha asosiy talablarni, ularning sanoatda o'zlashtirishga tayyorlik darajasini belgilaydi.

"Yo'riqnoma" Davlat geologiya qo'mitasi tomonidan 2002-yil 28-fevralda tasdiqlangan "Qurilishda ishlatiladigan va qoplama tosh konlari uchun zaxiralar tasnifini qo'llashga oid yo'riqnoma" o'rniga ishlab chiqilgan. Qurilishda ishlatiladigan va qoplama tosh konlarini baholash va qidirish hamda zaxiralarni hisoblash bo'yicha geologiya-qidiruv ishlarining mahalliy va xorijiy amaliyotini hisobga olgan holda, shuningdek, qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining yangi tasnifiga (DZK) muvofiq tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi.

7. "Fosforit konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma". Mualliflar: Panchenkova L.A., Asabayev D.X., Ergeshev A.M., Ishniyazov Sh. Ya., Raxmonova N.B.

Ushbu "Yo'riqnoma" fosforit konlarini o'rganish va zaxiralarini hisoblash bo'yicha asosiy talablarni, ularning sanoatda o'zlashtirishga tayyorlik darajasini belgilaydi.

"Yo'riqnoma" Davlat geologiya qo'mitasi tomonidan 1999-yil 7-dekabrda tasdiqlangan "Fosforit konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" o'rniga ishlab chiqilgan. Fosforit konlarini baholash va qidirish hamda zaxiralarni hisoblash bo'yicha geologiya-qidiruv ishlarining mahalliy va xorijiy amaliyotini hisobga olgan holda, shuningdek, qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining yangi tasnifiga (DZK) muvofiq tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi.

8. "Ko'l tuzi konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma". Mualliflar: Panchenkova L.A., Asabayev D.X., Ergeshev A.M., Ishniyazov Sh. Ya., Raxmonova N.B.

Ushbu "Yo'riqnoma" Ko'l tuzi konlarini o'rganish va zaxiralarini hisoblash bo'yicha asosiy talablarni, ularning sanoatda o'zlashtirishga tayyorlik darajasini belgilaydi.

"Yo'riqnoma" Davlat geologiya qo'mitasi tomonidan 2000-yil 28-iyulda tasdiqlangan "Ko'l tuzi konlariga oid zaxiralar tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" o'rniga ishlab chiqilgan. Ko'l tuzi konlarini baholash va qidirish hamda zaxiralarni hisoblash bo'yicha geologiya-qidiruv ishlarining mahalliy va xorijiy amaliyotini hisobga olgan holda, shuningdek, qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining yangi tasnifiga (DZK) muvofiq tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi.

9. "Qazilma tuz konlariga zaxiralar tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma". Mualliflar: Panchenkova L.A., Asabayev D.X., Ergeshev A.M., Ishniyazov Sh. Ya., Raxmonova N.B.

Ushbu "Yo'riqnoma" Qazilma tuz konlarini o'rganish va zaxiralarini hisoblash bo'yicha asosiy talablarni, ularning sanoatda o'zlashtirishga tayyorlik darajasini belgilaydi.

“Yo‘riqnoma” Davlat geologiya qo‘mitasi tomonidan 2000-yil 28-sentyabrda tasdiqlangan “Qazilma tuz konlariga zaxiralar tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma” o‘rniga ishlab chiqilgan. Qazilma tuz konlarini baholash va qidirish hamda zaxiralarni hisoblash bo‘yicha geologiya-qidiruv ishlarining mahalliy va xorijiy amaliyotini hisobga olgan holda, shuningdek, qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining yangi tasnifiga (DZK) muvofiq tegishli o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

10. “Flyuorit konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”. Mualliflar: Panchenkova L.A., Asabayev D.X., Ergeshev A.M., Ishniyazov Sh. Ya., Raxmonova N.B.

Ushbu “Yo‘riqnoma” flyuorit konlarini o‘rganish va zaxiralarini hisoblash bo‘yicha asosiy talablarni, ularning sanoatda o‘zlashtirishga tayyorlik darajasini belgilaydi.

“Yo‘riqnoma” Davlat geologiya qo‘mitasi tomonidan 1999-yil tasdiqlangan “Flyuorit konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma” o‘rniga ishlab chiqilgan. Flyuorit konlarini baholash va qidirish hamda zaxiralarni hisoblash bo‘yicha geologiya-qidiruv ishlarining mahalliy va xorijiy amaliyotini hisobga olgan holda, shuningdek, qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining yangi tasnifiga (DZK) muvofiq tegishli o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

11. “Magnezit va brusit konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”. Mualliflar: Panchenkova L.A., Asabayev D.X., Ergeshev A.M., Ishniyazov Sh. Ya., Raxmonova N.B.

Ushbu “Yo‘riqnoma” magnezit va brusit konlarini o‘rganish va zaxiralarini hisoblash bo‘yicha asosiy talablarni, ularning sanoatda o‘zlashtirishga tayyorlik darajasini belgilaydi.

“Yo‘riqnoma” Davlat geologiya qo‘mitasi tomonidan 2003-yil 8-oktyabrda tasdiqlangan “Magnezitli va brusitli konlarga nisbatan zaxiralar tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma” o‘rniga ishlab chiqilgan. Magnezit va brusit konlarini baholash va qidirish hamda zaxiralarni hisoblash bo‘yicha geologiya-qidiruv ishlarining mahalliy va xorijiy amaliyotini hisobga olgan holda, shuningdek, qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining yangi tasnifiga (DZK) muvofiq tegishli o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

12. “Barit va viterit konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”. Mualliflar: Panchenkova L.A., Asabayev D.X., Ergeshev A.M., Ishniyazov Sh. Ya., Raxmonova N.B.

Ushbu “Yo‘riqnoma” barit va viterit konlarini o‘rganish va zaxiralarini hisoblash bo‘yicha asosiy talablarni, ularning sanoatda o‘zlashtirishga tayyorlik darajasini belgilaydi.

“Yo‘riqnoma” Davlat geologiya qo‘mitasi tomonidan 2003-yil 8-oktyabrda tasdiqlangan “Barit va viterit konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma” o‘rniga ishlab chiqilgan. Barit va viterit konlarini baholash va qidirish hamda zaxiralarni hisoblash bo‘yicha geologiya-qidiruv ishlarining mahalliy va xorijiy amaliyotini hisobga olgan holda, shuningdek, qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining yangi tasnifiga (DZK) muvofiq tegishli o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

13. “Ishlov beriladigan-zargarlik toshlari konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”. Mualliflar: Panchenkova L.A., Asabayev D.X., Ergeshev A.M., Ishniyazov Sh. Ya., Raxmonova N.B.

Ushbu “Yo‘riqnoma” zargarlik toshlari konlarini o‘rganish va zaxiralarini hisoblash bo‘yicha asosiy talablarni, ularning sanoatda o‘zlashtirishga tayyorlik darajasini belgilaydi.

“Yo‘riqnoma” Davlat geologiya qo‘mitasi tomonidan 2004-yil 13-dekabrda tasdiqlangan “Ishlov beriladigan-zargarlik toshlari konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini

qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" o'rniga ishlab chiqilgan. Zargarlik toshlari konlarini baholash va qidirish hamda zaxiralarni hisoblash bo'yicha geologiya-qidiruv ishlarining mahalliy va xorijiy amaliyotini hisobga olgan holda, shuningdek, qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining yangi tasnifiga (DZK) muvofiq tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi.

14. **"Slyuda (muskovit, flogopit, vermikulit) konlariga nisbatan zaxiralarni tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"**. Mualliflar: Panchenkova L.A., Asabayev D.X., Ergeshev A.M., Ishniyazov Sh. Ya., Raxmonova N.B.

Ushbu "Yo'riqnoma" slyuda (muskovit, flogopit, vermikulit) konlarini o'rganish va zaxiralarni hisoblash bo'yicha asosiy talablarni, ularning sanoatda o'zlashtirishga tayyorlik darajasini belgilaydi.

"Yo'riqnoma" Davlat geologiya qo'mitasi tomonidan 2004-yil 13-dekabrda tasdiqlangan "Slyuda (muskovit, flogopit, vermikulit) konlariga nisbatan zaxiralarni tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" o'rniga ishlab chiqilgan. Slyuda (muskovit, flogopit, vermikulit) konlarini baholash va qidirish hamda zaxiralarni hisoblash bo'yicha geologiya-qidiruv ishlarining mahalliy va xorijiy amaliyotini hisobga olgan holda, shuningdek, qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining yangi tasnifiga (DZK) muvofiq tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi.


2. O'zaro fikr almashib, **Davlat komissiyasi qaror qiladi:**

2.1. Kon-geologiya vazirligining taklifiga rozilik bildirilsin;


2.2. 2022-yil 13-dekabrda tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ga (II-bosqich) muvofiq, ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar tasdiqlansin;

2.3. Ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar 2023-yil 1-iyuldan amalda tatbiq etilsin, hamda yuqorida keltirilgan – amaldagi me'yoriy hujjatlar 2023-yil 1-iyuldan o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

Kotib




Ibragimov A.E.




Pulatov E.G.



Istamov F.I.




Oxunov A.X.




Gleyzer L.M.



Panchenkova L.A.




Raxmonova N.B.



Asabayev D.X.



Ergeshev A.M.



Ishniyazov Sh.Ya.